

**TALABA - QIZLARDA TAZYIQ VA TAJOVUZGA QARSHI
DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHNING
TARIXIY ASOSLARI HAMDA TAJOVUZ TURLARI.**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7893280>

Uktamova Umida Sunatullayevna
Jizzax Davlat Pedagogika universiteti

Annotatsiya.

Maqolada talaba qizlarning oiladagi tazyiq va zo'ravonlikka qarshi dunyoqarashni shakllantirishni to'g'ri yo'lga qo'yish va uning mazmun mohiyati, talaba qizlarning oilaviy muammolar yechimi oiladagi sog'lom psixologik muhit yaratishiga, oilaviy zo'ravonlik va uning kelib chiqish sabablari, zo'ravonlik oqibatlari, oilaviy zo'ravonlikni oldini olish masalalari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar.

tazyiq va tajavuz, mehr-oqibat, nevrotik, nevrologik, oilaviy zo'ravonlik, ishonchszizlik, g'amxo'rlik, kamsitish, adolatsizlik, tajovuzkor, joniga qasd qilish hulqi, o'z – o'zini vayron qilish, ayibdorlik hissi, norozilik.

Yoshi, irqi, jinsi, e'tiqodi yoki ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar, har kim oiladagi zo'ravonlik qurbaniga aylanishi mumkin. Bolalar, boshqa qarindoshlar yoki boshqa har qanday birga yashaydigan shaxslar ham ichki tajovuz qurban bo'lishlari mumkin.Uydagi tajovuz odatda o'zini oilada yoki yaqin sherikga nisbatan tizimli tajovuzkor xatti-harakatlar sifatida namoyon qiladi, bunda tajovuzkor jabrlanuvchi ustidan kuch va nazoratga ega bo'ladi. O'z tabiatiga ko'ra, oiladagi tajovuz psixologik, jismoniy, iqtisodiy yoki jinsiy bo'lishi mumkin. Uning namoyon bo'lishi kamdan-kam hollarda bartaraf qilinadi va odatda zo'ravonlik kuchayib boradi. Oiladagi tajovuz jiddiy tan jarohati yoki o'limga olib kelishi mumkin.

"Ayol ruhi sohasidagi o'ttiz yillik izlanishlarimga qaramay, men ham ayol nimani xohlashini qanday tushunish kerak? – degan savoga javob bera olmayman "Zigmund Freyd (1923)

Zigmund Freydning ayollarga bo'lgan munosabati uning hayoti davomida tortishuvlarga sabab bo'ldi va bugungi kunda ham munozarali masala bo'lib qolmoqda. "Ayollar o'zgarishlarga qarshi turishadi, passiv oluvchilar, o'zlari esa

hech narsa bermaydilar", deb yozgan u "jinslar orasidagi anatomik farqlarning ba'zi ruhiy oqibatlari" (1925) asarida.

Donna Styuart buni izohlab shunday deydi: "Freyd o'z davrining odami edi. U ayollar ozodlik harakatining raqibi bo'lган va ayolning hayotini asosan uning jinsiy reproduktiv funksiyalari bilan belgilanadi, deb hisoblagan."¹¹⁹

"Oiladagi jismoniy", "oiladagi maishiy zo'ravonlik" yoki "intim zo'ravonlik" deb ham ataladigan ichki tajovuzni yaqin sherik ustidan hokimiyat va nazoratni qo'lga kiritish yoki saqlashga qaratilgan odamlar o'rtasidagi munosabatlardagi tizimli xatti-harakatlar deb ta'riflash mumkin.

Agressiya-bu boshqa odamga ta'sir qiladigan jismoniy, jinsiy, hissiy, iqtisodiy yoki psixologik harakatlar yoki harakatlar tahdidi. Bunga kimnidir qo'rqtadigan, bo'ysundiradigan, xafa qiladigan, kmsitadigan, ayblaydigan, haqorat qiladigan yoki jarohatlaydigan har qanday xatti-harakatlar kiradi.

Uydagi tajovuz irqi, yoshi, jinsiy orientatsiyasi, dini va jinsidan qat'i nazar, har qanday odamga ta'sir qilishi mumkin. Bu turli xil munosabatlarda sodir bo'lishi mumkin, ular turmush qurgan juftliklar o'rtasidami, birgalikda yashayotganlar o'rtasidami yoki tanishlar o'rtasida ham bo'lishi mumkin. Oiladagi zo'ravonlik ijtimoiy-iqtisodiy kelib chiqishi va bilim darajasidagi har xil bo'lган insonlar odamlarga ta'sir qiladi.

Uydagi tajovuz belgilari quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'lishi mumkin.

* Do'stlar davrsida va oilada kmsitilishi yoki masxara qilishi.

* Yutuqlarni mensimasligi.

* Insonni qaror qabul qilish imkoniyatini yo'qqa chiqaradi.

* Bo'ysundirish uchun qo'rqtish va tahdidlardan foydalanadi.

* Sizga hech kim emasligingizni o'qtirib boradi.

* Sizga qo'pol muomalada bo'ladi, masalan, urish, itarib yuborish, chimchilash kabilalar.....

* Giyohvand moddalar yoki spirtli ichimliklar ta'sirida tajovuz qiladi.

* O'zining his-tuyg'ulari yoki harakatlari uchun sizni ayblaydi.

* O'zingiz xohlagan narsani qilishingizga yo'l qo'ymaydi.

Jismoniy va jinsiy zo'ravonlik yoki undan foydalanish tahdidi uydagi tajovuz va zo'ravonlikning eng sezilarli shakllari hisoblanadi. Ularning namoyon bo'lishi boshqa odamlarga muammoning mavjudligini ko'rsatib turadi. Agarda tajovuzkor muntazam ravishda tajovuzkor harakatlarni amalga oshirsa, unda jismoniy zo'ravonlikning bir yoki bir nechta namoyon bo'lishi bilan birga, bu allaqachon

¹¹⁹ <https://aboutyourself.ru/psianaliz/chto-zigmund-frejd-dumal-o-zhenshhinax.html>

suiiste'mol qilishning katta muammosi sifatida ko'rildi. Jismoniy zo'ravonlik yakka yoki epizodik bo'lishi mumkinligiga qaramay, kelajakda bunday shafqatsizlik qo'rquvini uyg'otadi, bu esa tajovuzkorga o'z qurbanining turmush tarzini nazorat qilish imkonini beradi.

Hissiy tajovuz: doimiy ravishda odamning o'zini tomonidan o'zi qadrsizlantirishi; odamning qobiliyatlarini kansitish; haqoratli yoki kansituvchi fikrlarning aytilishi; bolalar, yaqinlar bilan munosabatlariga zarar yetkazish; oila va do'stlar bilan uchrashuvlarning taqiqlash. Agar turmushga chiqqan bo'lsa, turmush o'rtog'ining hissiy tajovuz belgilari quyidagi ko'rinishlarda bo'lishi mumkin:

- * doimiy haqorat va tanqid;
- * ishonmaslik, hasad yoki o'zini xo'jayindek tutadi;
- * oilangiz yoki do'stlaringizdan ajratishga harakati;
- * qaerga borganingizni, kimga qo'ng'iroq qilayotganingizni va kim bilan vaqt o'tkazganingizni kuzatib boradi;
- * o'qishga yubormaslik;
- * iqtisoddan qiynash;
- * o'ta sovuq munosabat;
- * farzandlar, qarindoshlar hayoti bilan qo'rqtish;

Psixologik tajovuz: qo'rquv tuyg'usini keltirib chiqarish uchun qo'rqtish, o'zingizga, sheringizga yoki bolalaringizga jismoniy zarar yetkazish bilan tahdid qilish, uy hayvonlarini o'ldirish va mulkka zarar yetkazish, ongni manipulyatsiya qilish, do'stlar, qarindoshlar, mакtab va/yoki ishdan majburiy izolyatsiya qilish.

Moliyaviy yoki iqtisodiy tajovuz: moliyaviy resurslarni to'liq nazorat qilish, mablag'larni rad yetish yoki o'qitish yoki ishga joylashishni taqiqlash orqali kimgadir moliyaviy qaramlikni yaratish yoki yaratishga urinishlar.

Jismoniy tajovuz: sheringiga og'riq keltirish, mushtlash yoki tepish, chimchilash, itarish, urish, sochini yulish, tishlash, tibbiy yordam berishni rad etish, spirtli ichimliklar yoki giyohvand moddalarni iste'mol qilishga majburlash, boshqa jismoniy kuch ishlatalish. Bunda quyidagi ishlar amalga oshirilishi mumkin:

- * g'azablanadi, narsalarini buzadi (devorlarni urishi, eshiklarni tepish kabilar);
- * uradi, tishlaydi, tepadi yoki bo'g'adi;
- xotinini xavfli yoki notanish joyda tashlab ketadi;
- * uydan haydab chiqaradi;
- * qurol bilan tahdid qiladi yoki xafa qiladi;
- uyni qulflab qo'yadi yoki uydan chiqishiga to'sqinlik qiladi;

* ichki ishlar xodimlari bilan bog'lanish yoki tibbiy yordam so'rashga ruxsat bermaydi;

* intim vaziyatda jismoniy kuchga murojaat qiladi.

Ta'qib qilish yoki qo'rqtishga qaratilgan har qanday xatti-harakatni o'z ichiga oladi. Ta'qib qilishning odatiy turlariga telefon qo'ng'iroqlari, istalmagan xatlar yoki sovg'alar, jabrlanuvchining ish joyi, o'qish joyiga muntazam ravishda tashrif buyurishi.

Chinda ayol inson sanalmas, hatto, ism qo'yilmasdi. Ayol 1, 2, 3, deb raqam bilan chaqirilardi. O'g'il bolalar maqbul hisoblanar, qiz bolalarni to'ng'izdan battar ko'rishardi¹²⁰.

Yahudiy xalqlari bugungi kunda muqaddas sanalgan ayolga qanchalar sovuq munosabatda bo'lishganligini, xotin - qizlar bir xizmatkordek ko'rilib, ularga odatiy holatda foydalaniladigan buyumdek qaralganligining isboti tarixiy faktlarda o'z tasdig'ini topgan. Qadimgi Xitoy davlatida ayolni inson sifatida ko'rmasligi, ularni yoqimli so'zlar bilan hurmat qilmas, aqalli ism qo'yish o'rniqa raqamlab chaqirish qadim zamonlarda ayol zotiga bo'lgan munosabat, ularga tikilgan nigohlarni zalolatga limmo-lim bo'lganligining achchiq isbotidir. Jahon mamlakatlari va turli xalqlarda ayollarga yuqorida keltirilgan misollardagi kabi joiz bo'lsa undan ham battaroq bo'lgan ochiqdan - ochiq xo'rash, zo'rash, tazyiq va tajovuzlar ko'rsatilgani bizga tarixdan ma'lumdir.

Islom dini tarqalishidan muqaddam johiliyat davrida ayollarga, qizlarga jirkanish va nafrat nigohi ila qaralgan, ular oyoq uchida ko'rilgan. Qaysidir oilada qiz farzand dunyoga kelsa bu otaga isnod bo'lgan. Qiz bola ming tahqirlar va zug'mlar ostida katta bo'lgan. Aks holda tiriklayin ko'mib yuborilgan. O'qish, ilm olish haqida-ku gap so'z bo'lishi ham mumkin emas edi. Ba'zi tarixiy manbalarda keltirilishicha, johiliyat davrida qiz farzand tug'ilsa, buni ota qayg'u bilan qabul qilgan. Qizni isnodiga chidab yurish yoki uni tiriklayin ko'mib yuborishdek tuban fikrlar haqida o'y surgan. Agar tirik qoldirgan taqdirda ham qizini 5 - 6 yoshga kirganida, ovloqqa olib borib tiriklayin o'z qo'li bilan ko'mib yuborgan hamda yengil tortgan holatda uyiga qaytgan. Bu haqida ona bechora bilsa ham, zamon hukmi ila otaga hech qanday qarshilik ko'rsata olmagan. Ammo, ushbu holatlar uzoqqa cho'zilmadi. Haq din hisoblangan Islom dini dunyoga tarqala boshlab, Muqaddas kitobimiz Qur'oni Karimda ayollarga zo'ravonlik qilishning naqadar og'ir gunoh ekanligi, bunday chirkin ishga qo'l urgan kaslar haqida bir qancha oyatlar nozil bo'lgandan so'ng, ayollarga erkinliklar berildi.

¹²⁰ "Аёл - мукаррамдир". Фотимахон Сулаймон кори кизи. Тошкент: "Мовороуннахр" - 2004.

Turkiylar tarixida eng ko'zga ko'ringan, jahon hamjamiyatida va tarixida alohida yorqin bo'yoqlar ila bo'yalib, ko'zga tashlanib turgan bir davr - Temuriylar sulolasi davrida yashab o'gan ota - bobolarimiz va aynan Amir Temur bobomiz ham ayollarning ilm olishiga zamin yaratganlar. Ularga yuksak hurmat va ehtirom bilan munosabatda bo'lganligini: "Ayollarga imkon qadar iliq muomilada bo'lishga harakat qildim", - degan fikrlaridan ham uqib olishimiz mumkin. Aynan, davlat boshqaruvida ham zavjalari Bibixonim bilan mashvarat ila hukm chiqarganlari, o'zlari uzoq joylarga harbiy yurishlarga ketgan vaqtlarida davlat boshqaruvini ayoliga ishonib topshirgani bobomizning ayollarga bo'lgan munosabatining nechog'liq samimiyligi va ishonchli ekanligining aksi desak bo'ladi. Ammo, vaqt o'tib, xonlik davri yaqinlashishi o'laroq, qizlarni paranjilarga o'rash, ta'lim olishda oqsoqliklar ko'zga tashlana boshlaydi.

Tarixiy asarlarga yuzlanadigan bo'lsak, Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" asarida jajji qiz - Ra'noring tazyiqqa uchrashi, otasi tomonidan zo'r lab xonga turmushga berishga harakat qilinishi o'sha davrda, xon haramidagi hali norasida qizlarning o'qishlarini tashlab, saroyda yosh umrlarining zavol bo'lishi o'quvchi - qizlarga, juvonlarga qilingan eng katta tajovuzlardan biri edi. Bunday qizlar sevish baxtidan ancha yiroqlashtirilib, faqatgina xonning ko'ngil - xushligi, kayfiyatini ko'taruvchi omil, shaxvatini qondiruvchi vosita sifatida foydalanilganlar..

Abdulhamid Cho'lponning "Kecha va kunduz" asarini bir eslaylik. O'qimagan, chala dumbul otaning farzandini o'ylamasdan, zo'r lash va tazyiq asosida guldek qizini o'zidan ham katta erkakka to'rtinchchi xotin sifatida uzatishiga nima deysiz?! Bu bilan qizlarning haq huquqlari to'la qonli poymol etilganligini ko'rishimiz mumkin. Vaholangki, muqaddas dinimizda ham qiz bolani o'zining rizoligisiz nikohlashning mumkin emasligi aytib o'tilgan. Xonlik tuzumidan keyin, Chor Rossiyasi tomonidan yurtimizning bosib olinishi ayollar boshiga yana va yana yangidan yangi zo'ravonlik va tazyiqlar eshigini ochib berdi, desak adashmagan bo'lamiz.

Bugungi kunda ham bir qator muammolar borki, uni bizning talaba qizlarimiz aytishdan or qiladi, uni uyat deb bilganligi sababli ham bunday muammolar davom etaveradi..

- "Talaba - qizlarga nisbatan tazyiq yo'q" deb kim kafolat beradi?
- " Talaba - qizlarni ota - onalari zo'r lab turmushga berishi tugatilgan" - deb kim kafolat bera oladi?!

- "Talaba - qizlar to'lov - shartnomalarini pulini to'lashda o'zlarini qiyin ishlarga majburan jalb qilmasligiga", - kim kafolat beradi?!

Hech kim !!!

Abdulhamid Bosish Jazoiriyning: "Bir bolaga ta'lismi bersang, jamiyatda bir shaxs to'g'ri yuradi. Agar bir qizga ta'lismi - tarbiya bersang, butun bir millat isloh bo'ladi."¹²¹ - degan fikrlari naqadar adolatli. [3]

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, oila sharoitida qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash jarayonida so'z (nutq) kuchiga tayangan holda faoliyat yuritish kutilgan natijalarni berishga xizmat qiladi. Zero, so'z (nutq) yordamida qizlarga muayyan masalalar yuzasidan ma'lumotlar berish, ularning bilimlarini shakllantirish va oshirib borish, ular tomonidan amalga oshirilgan xatti - harakatlarning to'g'ri yoki noto'g'riliqi haqida fikr bildirish, rag'batlantirish, ularda mustaqil fikrlash qobiliyatini yuzaga keltirish, muayyan voqealar hamda hodisalarga nisbatan shaxsiy yondashuvni qaror toptirishga undash imkoniyati yuzaga keladi.

Oilada qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash chog'ida moddiy ashyolar hamda ularning qadriyatdorlik xususiyatlaridan foydalanish ham maqsadga muvofiqdir. Masalan, buva hamda buvi, ota yoki ona, shuningdek, oilaning boshqa a'zolariga tegishli bo'lgan buyum va yodgorliklar qizlar tomonidan oila an'analariga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lish, oila muqaddasligi, uning sha'ni, obrusi uchun kurashish oilaning har bir a'zosi uchun sharafli burch ekanligini chuqur anglab yetilishiga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Enikolopov S.N. Oilaviy zo'ravonlik muammolari // Amaliy psixologiya. - 2002. - № 5/6. - S. 7 ..
2. Perttu S. Zo'ravonlikka duch kelgan ayollar uchun qo'llanma /. - Jivaskila: Gummerus, 2010. - S. 6-7 ..
3. Asanova M. Oiladagi zo'ravonlikning oldini olish bo'yicha ko'rsatmalar / Ed. N.K.: Vlados, 2007.- S. 218 ..
4. Zdravomyslova O. Oiladagi zo'ravonlik va an'anaviy tarbiya tushunchasining inqirozi // Ijtimoiy pedagogika. - 2005. - № 1. - S. 124 ..
5. Uktamova, U. (2020). AGRESSIVNOE POVEDENIE NA RAZVITIE VZGLYADOV DEVUShEK. Arxiv Nauchnyx Publikatsiy JSPI.

¹²¹ "Одблар сарчашмаси". Абдумутал Отабоев. - Тошкент: "Қақнус Медиа" нашриёти , 2019. - 160 б.

-
6. Uktamova, U. (2020). OILAVIY ZO'RAVONLIKNING KELIB ChI?ISH SABABLARI. Jurnal Pedagogiki i psixologii v sovremennom obrazovanii, (1).